

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILDA TASHQI VA ICHKI KUZATUV

Cho'liyev Ruhillo Abdullayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: lingvokulturologiya hozirgi kunda rivojlanib borayotgan soha hisoblanadi, shuni inobatga olgan holda olib borilishi lozim bo'lgan tadqiqotni har tomonlama tahlil qilish, uning mohiyatini atroflicha anglash talab etiladi, shuni inobatga olib, lingvomadaniy tadqiqni amalga oshirishda tashqi va ichki kuzatuv omilining ahamiyati, uning o'rganilayotgan obyektga munosabati mazkur maqolada tahlil ostiga olingan.

Kalit so'zlar: tashqi kuzatuv, ichki kuzatuv, lingvomadaniyat, spesifika, realia, prototip, obraz, udum, odat

V.N.Teliya tomonidan taqdim etilgan tashqi va ichki kuzatuvga asoslangan teoriyasi lingvokulturolik birliklarni tadqiq qilishning eng maqbul usulidir. Bu usul tadqiqning darajasini oshiradi, aniqlikni ta'minlaydi, tilni tadqiq va tahlil qilishning maydonini kengaytiradi, madaniyatlar va tillararo munosabat mohiyatini chuqur anglashimizga, uning nozik qirralarini o'rganish, o'zlashtirish, ko'nikmalar hosil qilishimizga yordam beradi.

Tilni lingvomadaniy tadqiq qilishda *“ichki kuzatuv”* ikki tamoyilga asoslanadi: birliklarning ichki ma'nolarini anglash hamda uning qanday birliklarga aloqadorligini tushunish. Bu holatlar ma'lum tilda muloqatda bo'luvchi kishilarning ijtimoiy-maishiy, geografik hududi, ularni o'rab turgan obyektlar bilan aloqadorda kechadi.

“Tashqi kuzatuv” faqatgina bog'liqlik, daxldorlik, aloqadorlikka asoslanadi. *“Tashqi kuzatuv”* ma'lum til egalarini, mazkur tildan xabardor bo'lmagan shaxslar bilan ma'lum darajada dunyoqarashda birlashtirishi mumkin. Masalan, tilimiz uchun lingvokulturologik birlik sanalgan *“tandir”* so'zining ma'nosini boshqa tilda so'zlovchilar ham(arablar bundan mustasno), bu birlikdan faol ravishda foydalanuvchi xalqimiz ham mazkur so'zning arab tilidan olinganligi va *“o'choq”* ma'nosini ifodalashini bilmaydi, lekin u qanday maqsadda foydalanishi, qanday obyekt va subyektlarga daxldorligini tushunadi. Mazkur birlikning milliy realiya sifatida qanday udumlar, rasm-rusumlar va taomlarga aloqadorligini obyektning madaniyati darajasiga chiqargan xalqqa biladi. *“Tandir”* taom ma'nosini ifodalashi lingvokulturologik

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

jihatdan ayni millat vakillarining ham tashqi , ham ichki kuzatuvi asosida yuzaga chiqadi.

Fanlar o'rganish obyektiga ko'ra tasniflanganda, obyekt insonshunoslikka qaratilgan sohalarga ijtimoiy fanlar kiradi. Har biri insonning qaysi jihatini o'rganilshiga qarab farqlanadi, xolos. Tilshunoslik inson muomala-muloqotining asosini tashkil qiluvchi birliklarni eng kichik bo'lagi sanalgan, tovush va harfdan tortib, uning eng yirik ko'rinishi matnni ham tahlil qiladi. Til sathlaridagi turli birliklarning xossalari turli aspektlar asosida o'rganiladi. Tovush yoki harfga, leksik, frazeologik, paremiologik, morfologik, sintaktik va stilistik birliklarga ma'lum bir lingvistik qoidalar asosida munosabatda bo'ladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “spesifika” lotincha birlik sifatida “tur, jins va bajarmoq, qilmoq” so‘zlaridan tarkib topganligi, “biror narsa, hodisa uchungina xos , xarakterli xususiyatlar majmui” ekanligi izohlangan(O‘TIL, 566). Lingvokulturologiyaning spetsifikasini shu sohaga taalluqli birliklar, uni tadqiq etish usullari, obyekt va boshqa hodisalar tashkil etadi.

Madaniyatshunoslik kishilik jamiyatiga tegishli bo'lgan, odam aql-zakovati mahsuli sifatida shakllangan, kashf qilingan narsalarni o'z ichiga qamrab oladi. Madaniyatlar ham turlicha ahamiyat kasb etadi, individual, jamoaviy, umuminsoniy kabi madaniyatlar mavjudki, ularning barchasi inson kashfiyotining mahsuli hisoblanadi.

Etnografiyada xalqning turlicha hayotiy chizgilari, ommalashgan udumlar, rasm-rusumlar, odatlar, an'analar o'rganiladi. Ma'lum bir udumlar turlicha teonimik qarashlar, mif, afsona yoki turlicha hayotiy-maishiy vaziyatlar nuqtayi nazaridan paydo bo'ladi.

Psixologiya fanida inson ruhiy holati, uning bosqichlari, filogenetik va ontogenetik taraqqiyot yo'li, unda insonning psixologik holatini kuzatishda o'z aksini topadi.

Sotsiologiya kishilik jamiyatining turmush tarzi, uning ijtimoiy hayotida sodir bo'ladigan voqealar, turli ijtimoiy jamiyatlarning shakllanishi, bu bilan insonlarning maishiy, ijtimoiy hayotida sodir bo'ladigan jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Yuqorida har bir fanning alohida o'rganilish sohasi haqidagi umumiy qarashlarni bayon etishdan maqsad lingvokulturologiyaning spetsifikasi nimalardan iboratligi, ularning mazkur fanlar bilan qanday aloqasi borligi, badiiy matn tahlilida

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

bularning tutashgan nuqtalarini bilish qanday samara berishi mumkinligini tahlil qilishdan iborat.

Mazkur gap lingvistik tahlil qilinganda, unli va undosh tovushlar, turli leksik birliklar, soʻz turkumlari, gap boʻlaklari, ularning tartibi, uslubiy jihatdan matnning xususiyatlari tahlil qilinishi mumkin. Leksik birliklarning polisemantik tabiati, gap boʻlaklarining tartibi turkiy tillarga xos lingvistik jihatlar bilan aloqadordir.

Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan xalqning milliy-madaniy etaloni sanalgan *shavla*, *palov* kabi birliklar xalqning kashfiyoti sanaladi.

Psixologik jihatdan xalqning ezgu kunlarda yaqin insonlaridan turli ruhiy taʼsirlarni, munosabatlarni kutishi, hamdardlik kabi xossalar xalqimizning madaniy qiyofasini belgilaydi va turli odatlarimizda aks etadi.

Aza udumi xalqimizda asrlar davomida yashab keladi, marhum vafot etganidan soʻng shu odamning endilikda mavjud emasligini, uning mutlaqo qaytib kelmasligini anglab turgan qarindoshlariga bu vaziyatning naqadar ogʻirligini bilintirmaslik uchun yoʻqlab turishadi. Maʼlum bir payt davomida yoʻqlab turish bir qadar koʻnikish hissini paydo qiladi. Oʻzaro yaqinlik, bir-birini ogʻir damlarda yolgʻiz qoʻymaslik xalqimizga xos milliy qadriyatdir. Bunday qadriyatlar insonlarning oʻzlarining tutumlarida, lingvistik birliklarni vaziyat taqozosi bilan qanday qoʻllashlariga qarab belgilanadi.

Har qanday madaniy xususiyatlar xalqning tili, uning rasm-rusumlari, vaziyatlarga munosabatida koʻrinadi. Turli afsonalar, metaforalar, xalq tomonidan ruhiyatida, madaniyatiga singdirilgan prototiplar ularning hayotiy-maishiy holatining ajralmas qismiga aylangan. Madaniyatdagi ramziylik, etalon, metafora va oʻxshatishlar har qanday insonning oʻziga xos tafakkuri va tasavvuri mevasi oʻlaroq paydo boʻladi, davr oʻtishi bilan taʼsirlar natijasida umumlashadi, koʻnikma holiga keladi. Xalq oʻzi uchun ideal darajaga olib chiqqan obrazlar(ular inson ham boshqa tshunchalar, masalan, hayvon, oʻsimlik, tabiat hodisalari va boshqalar), rasm-rusumlar, urf-odatlar, simvollar, ferazeologik hamda paremiologik birliklar, turli lingvistik hodisalarda lingvomadaniy xossalar jamlangan boʻladi.

Turli xalqlarning ertak, afsonlarida boʻriga nisbatan yovuzlik, qonxoʻrlik timsoli sifatida qarasa, turkiy xalqlarning yozma yodgorliklarida, jumladan, Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Quradgʻu bilig” asarlarida ijobiy timsol sifatida “*mardlik, jasurlik, sadoqat, erkinlik, hurlikka intiluvchi*” kabi turli semalarni ifodalashga xizmat qiladi. Turli madaniyatarning taʼsirida mazkur birlikka nisbatan har xil munosabatar yuzaga kelgan. Aslida,

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

“Bo‘rning yesa ham , yemasa ham og‘zi qon” maqolida murakkab ijtimoiy-maishiy, madaniy mazmun yashiringan. Ma’lum bir odam yanglish yo‘lga kirib qolsa, yoki qandaydir jamiyat uchun nomaqbul ishni amalga oshirsa, keyinchalik shu ishni bajarmasa ham, uni aybdor sifatida ko‘rsatish odati shakllanaganligini, buni tark etish lozimligiga ishora qilinadi. Bu bilan xalqimizning bag‘rikenglik, kechirimlilikka da’vat etish g‘oyalari mavjud.

Фойдаланилган адабиётлар ro‘yxati:

1. Qodiriy A. “She’rlar, hikoyalar, ocherklar, drama, hajviya va kichik asarlar”. T.: Zabarjad Media, 2022.
2. Серебренников Б.А. Язык как общественное явление. «Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка». М., 1970, стр. 420.
3. Телия Н.В. Дипы языковых значений. Связанное значение слова в языке.-М., 1981.
4. Подольская Н. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988. – С. 128.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент, 2006-2008. Тошкент, I. 2006. – 680 б.; Тошкент, II. 2006. – 672 б.; Тошкент, III. 2007. – 688 б.; Тошкент, IV. 2008. – 608 б.; Тошкент, V. 2008. – 592 б.
6. Зыбковец В. Ф. Дорегиональная эпоха. -М.: 1959, стр. 119.